O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(I-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS
INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(I-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

Shunday qilib, iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalashuvi jarayonidagi tendensiyalar xizmatlar sohasi taraqqiyoti bo'yicha quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1.Raqamli transformatsiya jarayoni xizmatlar sohasida raqamli texnologiyalariga asoslangan yangi xizmat turlarini vujudga keltiradi va mazkur xizmatlarni turli xil nomlarga ifodalash mumkin(elektron xizmatlar, raqamli xizmatlar, AKT xizmatlari va boshqalar).

2. Raqamli transformatsiyalashuv natijasida xizmatlar sohasida yangi turdagi raqamli gibrid xizmatlarni shakllantiradi (har bir mijoz bilan aloqa o'rnatishga, uning tranzaksiyalarini kuzatishga va bashoratli xizmat uchun ma'lumot to'plashga imkon beradigan xizmatni shaxsiylashtirish).

3. Xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyalashuv savdo xizmatlari ulushining oshishiga sabab bo'lib, quyidagi turdagi raqamli xizmatlardan (*product-as-a-service (PaaS) xizmatlari, bulutli xizmatlar Software-as-a-service (Sas), Data-As-A-Service (DaaS)* va hokazo) foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Raqamli transformatsiya jarayoni xizmatlarni yetkazib beruvchi va iste'molchisi o'rtasidagi munosabatlarda quyidagi shakllarda (*customer-to-customer (C2C), machine-to-customer (M2C), government-to-customer (G2C), business-to-government (B2G), government-to business (G2B), peer-to-peer (P2P))* amalga oshirilishi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.

3. UNCTAD, KPMG or OECDning global raqamli iqtisodiyot bo'yicha ma'lumotlari

ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Ulug'murodov Farxod Faxriddinovich
SamISI, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi asisstenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron savdoni mohiyati hamda rivojlantirish iste'molchilar uchun samaradorlik, tezlikni oshirish va do'konlarining doimiy ochiq bo'lishi talab etiladigan zamonaviy texnologik ilovalarni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Elektron savdo, internet, online do'kon, kredit karta, PayPal, Payme, Internet of Things (IoT), Shaxsiylashtirilgan marketing.

FEATURES OF DEVELOPING E-COMMERCE

Annotation. This article discusses the essence of e-commerce and provides suggestions and recommendations for utilizing modern technological applications aimed at increasing efficiency, speed, and ensuring the constant availability of stores for consumers.

Keywords. E-commerce, internet, online store, credit card, PayPal, Payme, Internet of Things (IoT), personalized marketing.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность электронной коммерции, а также представлены предложения и рекомендации по использованию современных технологических приложений, направленных на повышение эффективности, скорости и обеспечение круглосуточной доступности магазинов для потребителей.

Ключевые слова. Электронная коммерция, интернет, онлайн-магазин, кредитная карта, PayPal, Payme, Интернет вещей (IoT), персонализированный маркетинг.

Elektron savdo mohiyati, internet orqali mahsulotlar sotib olish va sotishning yanada oson va tezroq bo'lgan texnologik uslubidir. Elektron savdo, xaridorlar va sotuvchilar uchun qulayliklar yaratadi va mahsulotlarni bir necha soniyada xarid qilish imkoniyatini beradi. Bu jarayon online do'konda yoki platformalarda amalga oshirilishi mumkin. Elektron savdo mohiyati, iste'molchilar uchun samaradorlik va tezlikni oshiradi va kompaniyalar uchun ham foydali bo'lib, do'konlarining doimiy ochiq bo'lishi talab etiladigan zamonaviy texnologik ilovalarni qo'llashga imkon beradi.

Elektron savdo, internet orqali mahsulot sotib olish va savdo amaliyotlarini o'z ichiga olgan savdo turi hisoblanadi. Elektron savdoda bir nechta xususiyatlar mavjud bo'lishi mumkin, ulardan ba'zilari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. To'lov variantlari: Elektron savdoda ko'plab to'lov variantlari mavjud bo'ladi, masalan, kredit karta, PayPal, Payme va boshqalar.

2. Buyurtmalar tarixi: Elektron savdoda sizning buyurtmalar tarixingizni ko'rish mumkin va buyurtmangizni qanday davom ettirish kerakligini aniqlash imkoniyati mavjud.

3. Mahsulot taqdimoti: Eleagnostik kompaniyalar mahsulotlarni tovarlarni bepul yetkazib berish xizmatini taklif qilishi mumkin.

4. Chegirmalangan narxlar: Elektron savdo saytlarida chegirmalangan narxlar bilan tanlov imkoniyati mavjud bo'ladi.

5. Fikr-mulohazalar: Mahsulotlar uchun mijoz fikrlarini o'qish va foydalanuvchilar tomonidan berilgan reytingni ko'rishingiz mumkin.

6. Xavfsizlik: Xavfsizlik sohasida elektron savdoning muhim xususiyatlari tahlil qilingan va shaxsiy ma'lumotlaringizni himoya qilish uchun kerakli harakatlar olib borilgan.

Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi olib borgan tahliliy o‘rganishlarga qaraganda, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biriga aylandi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi barqaror o‘sib bormoqda. Xususan, 2022-yilda elektron tijorat savdolari hajmi 2021-yilga nisbatan 1,8 barobar oshib, 10 886,8 milliard so‘mdan ortiqni tashkil etdi. Bu umumiy chakana savdo hajmining 4 foizdan ortig‘iga teng.



O‘zbekistonda elektron tijoratning kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri—sohani qonunchilik bilan tartibga solishdir. 2022-yilda yangilangan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun iste’molchilarni ham, tadbirkorlarni ham huquqiy himoya qiladi, elektron operatsiyalarni amalga oshirish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash tartibini belgilaydi. Ishonchli va barqaror elektron tijorat ekotizimini yaratishda qonunchilik va to‘lov tizimlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular jarayonning barcha ishtirokchilari — ham xaridorlar, ham sotuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydi.

2019-yilda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va bu fintech sektorining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Elektron to‘lovlar iste’molchilar va biznes uchun qulaylik va xavfsizlikni ta’minlovchi onlayn tijoratning ajralmas qismiga aylandi. O‘zbekistonda onlayn tranzaksiyalarni osonlashtiradigan bir qancha to‘lov tizimlari mavjud.

Soliq xizmati portalining ma’lumotlariga ko‘ra, elektron tijorat subyektlari sonining sezilarli o‘sishi kuzatilmoqda. Joriy yilning 1-avgust holatiga ularning soni 159 taga yetdi, jumladan, 52 ta elektron to‘lov tizimi va 35 ta bank mobil ilovasi, 72 ta internet-do‘kon va savdo maydonchalari mavjud. Yil boshidan 1-avgustgacha taqdim etilgan cheklar miqdori 28 438,8 milliard so‘mni tashkil etdi, shundan 7,4 foizi internet-do‘konlar va bozorlar tomonidan ta’minlandi.

Bu elektron savdoning faoliyatini yanada qulaylashtiradigan yoki mijozlarga xidmat ko'rsatadigan bazi xususiyatlardir.

Elektron biznesning afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Kamroq xarajatlar: Elektron tijorat an'anaviy chakana savdoga qaraganda kamroq operatsion xarajatlarga ega, chunki jismoniy do'konlarni ishlatish uchun zarur bo'lgan ko'plab ijara, xodimlar va boshqa xarajatlarning oldini oladi.

2. Global ta'sir: Elektron tijorat butun dunyo bo'ylab mijozlarga erishish imkoniyatini beradi. Bu korxonalarga mijozlar bazasini kengaytirish orqali ko'proq savdo qilish imkonini beradi.

3. 24/7 ochiq bo'lish: Onlayn do'konlar doimo ochiq bo'lgani uchun mijozlar xohlagan vaqtda xarid qilishlari mumkin. Bu savdoni oshirishi mumkin.

4. Shaxsiylashtirilgan marketing: Elektron tijorat platformalari mijozlarning xarid qilish tarixi va afzalliklariga asoslangan shaxsiy tavsiyalarni taqdim etishi mumkin. Bu mijozlar ehtiyojini qondirishni oshirishi mumkin.

5. Ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot berish: Elektron tijorat platformalari korxonalarga savdo ma'lumotlarini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ushbu ma'lumotlar tufayli korxonalar yaxshiroq marketing strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Ushbu afzalliklar elektron tijoratni an'anaviy chakana savdoga qaraganda jozibador qiladi va biznesning rivojlanishiga yordam beradi.

Elektron savdo, yangi texnologiyalar va yaratuvchilik bilan davom etish uchun bir nechta takliflar mavjud:

1. Ma'lumotlar analitikasi va ma'lumotlarni foydali tahlil qilish texnologiyalari yordamida, xaridorlar haqida ko'proq ma'lumot to'plash va uni o'rganish.

2. 5G tejaratini qo'llab-quvvatlash: Tezkor internet ulkan hajmli ma'lumot almashishni ta'minlash uchun 5G tejarati elektron savdo sohasida bir nechta muhim imkoniyatlarni ochib beradi.

3. Sun'iy intellekt (SI) va avtomatlashtirilgan yordamchi dasturlar: SI va robotlar elektron savdo jarayonini avtomatlashtirish, xizmat sifatini oshirish va mijozlarga shunchaki personalizatsiya qilishga yordam beradi.

4. Blokchain texnologiyasi: Blokchain sayohatlar, logistika va savdo muomalalarida ishlab chiqaruvchi shaxslarning hamkorligini kuchaytiradi va xavfsizlikni ta'minlaydi.

5. Internet of Things (IoT): IoT vositalari elektron mahsulotlarni monitoring qilish, ishlab chiqaruvchi jarayonni optimallashtirish, mijoz talablariga mos javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va qonunchilik hujjatlari elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha: lex.uz.
2. Uzbeksitan E-commerce Market Insights – Chamber of Commerce of Uzbekistan Reports (2022).

3. Abdulloev, D. (2023). O‘zbekistonda elektron savdo rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri. Toshkent Iqtisodiyot Universiteti nashri.

MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ XO’JALIGI XIZMATLARINING NAZARIY ASOSLARI

Usmonov Murodjon Dusmurot o‘g‘li,
SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistant-stajyori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi xizmatlarining nazariy asoslari va uni rivojlantirishga qaratilgan “Xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish”ning 2020—2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi haqida ma’lumot keltirilgan. Xususan, iqtisodchilar G‘.H.Qudratov va Q.J.Mirzayevlarning agrosanoat xizmatlari bo‘yicha fikrlari keltirilib, ularning tahlili amalga oshirilioshi shunigdek, qishloq xo‘jaligi xizmatlarining ahamiyatini, ularni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni qo‘llash zaruratini va strategiyaning samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘z ichiga olgan.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi, agrosanoat xizmatlari, arzon ishchi kuchi, infratuzilma ob’yektlari, real xizmat, ideal xizmat.*

THEORETICAL BASIS OF AGRICULTURAL SERVICES IN OUR COUNTRY

Abstract. *This article provides information on the theoretical foundations of agricultural services in our country and the strategy for 2020-2030 of the "Development of Agriculture of the Republic of Uzbekistan developed with the participation of international organizations and experts" aimed at its development. In particular, the opinions of economists G.H. Kudratov and K.J.Mirzayev on agro-industrial services are given and their analysis is carried out, as well as the importance of agricultural services, the need to use international experiences in their development, and ways to increase the effectiveness of the strategy. included.*

Keywords: *agriculture, agro-industrial services, cheap labor, infrastructure facilities, real service, ideal service.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Абстрактный. *В данной статье представлена информация о теоретических основах сельскохозяйственного сервиса в нашей стране и стратегии на 2020-2030 годы «Развития сельского хозяйства Республики Узбекистан», разработанной с участием международных организаций и экспертов, направленной на его развитие. В частности, приведены мнения экономистов Г.Х. Кудратова и К.Ж.Мирзаева об агропромышленных*

I-SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI		
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich Artikova Shoxida Ilyasovna	**XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MUHIM MASALALARI**	5-9
Ulug‘murodov Farxod Faxriddinovich	**ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI**	9-13
Usmonov Murodjon Dusmurot o‘g‘li	**MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ XO‘JALIGI XIZMATLARINING NAZARIY ASOSLARI**	13-16
Z.B.Usmanov	**ISTE’MOL TOVARLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATINING NAZARIY METODOLOGIK MASALALARI**	16-22
Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi Allayorov Xusniddin Eshqul o`g`li	**MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALAR AHAMIYATINI OSHIRISH**	22-25
Musurmonova Muxlisa Samandar qizi Danayeva Zulhumor Abdusodiq qizi	**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**	26-29
Bultakova Sadoqat Qudratovna	**XIZMATLAR SOHASINING O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI**	30-34
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich Egamkulov Davlatbek Baxodir o’g’li	**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO’RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI**	34-39
Urinboyeva Yulduz Pirnazarovna Ro`zmetov Umrbek Ravshanbek o`g`li	**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO`RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI**	39-42
Rafiqjonov Damir Raxim o’g’li, Shavkiev Erkin	***RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI***	42-46
Умирзоқова Мухаббат Исматжон қизи	**РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**	46-49